


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

2/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

2/2024

	ionalar” hajviyalarining statistik tahlili	
Rasulov Z.I., Murtazoyev O.N.	Badiiy matn tahlilida intertekstual birliklarning ahamiyati	281
Ubaydullayeva M.Oʻ.	Frazeologik birliklarning semantik-grammatik va funksional xususiyatlari	285
Фалеева Е.В.	Английские неологизмы различных поп-культур	292
Шарипова Д.К.	О сравнении традиционных и современных (электронных) словарей	296
Mamarasulova G.A., Hojimurodova Sh.E.	Distinctive characteristics and complexity of socio-political texts	303
Choʻliyev R.A.	Badiiy asar tilining oʻrganilishi va uning ahamiyati	308
Norova M.F.	Stylistic functions of jargonisms in artistic imagery	312
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Ishankulova D.A.	Umar Xayyom ruboiylarining shubhali nusxasi	316
Narzullayeva F.O., Asadov A.B.	Maqol va aforizmlarning ahamiyati	321
Xamidova M.A., Odilova G.K.	Oʻzbek va jahon bolalar adabiyotida glyuttonik qahramonlar va yetakchi syujetlar tahlili	327
Сафин Д.Ш.	Особенности представления дополнительных данных в словарных статьях немецких лексикографических источников (на материале «Немецко-русского словаря разговорного языка» А.В. Безрукова)	333
Gasimov R.A.	The artistic-structural essence of monologues in the dramas by Jalil Mammadguluzade	337
Ёвкачева З.М.	Типы адресантов в аспекте языковой оценки: анализ писем М.И. Цветаевой	343
Rahmonova Sh.R.	Oʻzbek mumtoz adabiyotida va Navoiy ijodida ijtimoiy faol shaxs masalasi	347
Kasimova R.R., Saloyeva M.A.	Ingliz va oʻzbek topishmoqlari genezisi va spesifikasi	354
“NAVOIY GULSHANI”		
Ibotova M.O.	Alisher Navoiy gʻazaliyotida mahzun koʻngul, gʻamnok ruh tasviri	358
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Хикматов Ш.Ш.	Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларига доир халқаро стандартлар	360
Qarshiyev N.O.	Markaziy Osiyo mintaqasiga xos global muammolarga yechim topishda siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish istiqbollari	367
Маҳмудбоев Б.	Янги Ўзбекистонда ахборот хавфсизлигини амалга оширишнинг истикболли йўналишлари	372
Саъдуллаев Ж.Н.	Жиноят процесси иштироки сифатида гувоҳ иштироки: муаммо ва таклифлар	378
Сойибов Ф.Ф.	Эксперимент тергов ҳаракатининг процессуал жиҳатлари	383
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Рашидов Ў.У.	Бухоро амирлигининг сиёсий аҳволи	389
Ergashov Z.B.	Turkiston general gubernatorligining firma va kompaniyalar bilan savdo aloqalari	394
IQTISODIYOT *** ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА		
Salimov A.F.	Mintaqaviy statistikaning rivojlanish istiqbollari	399
Valiev O.Sh.	The role of FDI, ODA and remittances in the economic growth of Uzbekistan	403

INGLIZ VA O'ZBEK TOPISHMOQLARI GENEZISI VA SPESIFIKASI

Kasimova Ra'no Rahmatulloyevna,
Buxoro davlat universiteti, Ingliz adabiyoti
va tarjimashunoslik kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
r.r.kasimova@buxdu.uz
Saloyeva Mahbuba Asror qizi,
Buxoro davlat universiteti Qiyosiy tilshunoslik va
tarjimashunoslik mutaxassisligi 1-kurs magistranti
m.a.saloyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Hozirgi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab kuchayib bormoqda. Chet tillarini bilish qanchalik dolzarb bo'lsa, chet tili folklorini ona tili bilan solishtirish, o'xshashlik va farqlarni aniqlash ham muhim vazifadir. Folklorning eng muhim turlaridan biri hisoblanmish topishmoq xalqaro janr hisoblanadi. Topishmoq kishilar ongida turli tasvirlarni gavdalantiradi. Ularda tabiat hodisalari, hayvon va o'simliklar, uy-ro'zg'or buyumlari ifodalanib, ma'lum bir millat, davlat haqida butun dunyoga ko'p ma'lumotlar beriladi, shu bilan birga, o'quvchi tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyati bilan tanishtiriladi.

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz topishmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan. Ingliz tilidagi topishmoqlar jumboqlar, boshqotirmalar, o'yin topishmoqlari, qadimgi ingliz topishmoqlari, zamonaviy topishmoqlar kabilarni o'z ichiga olsa, o'zbekcha topishmoqlar majoziy topishmoqlar, savol topishmoqlar, she'riy topishmoqlar, nasriy topishmoqlar, eski va zamonaviy o'zbek topishmoqlari singari turlardan iborat. Topishmoqlar bolalarning aql-zakovatini oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, topqirlik, mantiqiy fikrlash xususiyatlarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: topishmoq, folklor, metaforik, majoziy topishmoqlar, she'riy topishmoqlar, o'yin topishmoqlar.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ И СПЕЦИФИКАЦИЯ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЗАГАДОК

Аннотация. В настоящее время спрос на изучение иностранных языков возрастает. Насколько важно знать иностранные языки, так же важной задачей является сравнение фольклора иностранного языка с родным языком, выявление сходств и различий. Загадка, являющаяся одним из важнейших видов фольклора, является интернациональным жанром. Загадки воплощают в сознании людей разные образы. Они изображают явления природы, животных и растения, предметы быта, доносят до всего мира массу информации об определенном народе и государстве, в то же время знакомят с культурой стран изучаемого языка.

В данной статье описаны уникальные особенности узбекских и английских загадок. К английским загадкам относятся загадки, такие как игровые, древнеанглийские, и современные, а к узбекским загадкам относятся метафорические, вопросительные, поэтические, прозаические, древние и современные загадки. Загадки служат повышению интеллекта детей, а также формируют у них такие качества, как находчивость и логическое мышление.

Ключевые слова: загадка, фольклор, метафорические загадки, образные загадки, поэтические загадки, игровые загадки.

GENESIS AND SPECIFICATIONS OF ENGLISH AND UZBEK RIDDLES

Abstract. The development of studying foreign languages is on the progress at present. While knowing foreign languages is so urgent, comparing foreign language folklore with the native one, finding out similarities and divergences is also an important task. As being one of the most important types of folklore riddle is considered to be an international genre. Riddles encourage people to see things in different way. They portray natural phenomena, personified animals and plants, household objects and give much information about our country to the whole world and at the same time inform us with the culture of the TL.

This thesis defines the specific features of riddles in Uzbek and English languages. English riddles include enigmas, conundrums, puzzles, game riddles, charades, old English riddles, contemporary riddles, while Uzbek riddles subdivided into metaphoric riddles, question riddles, poetic riddles, prosaic riddles, old and modern Uzbek riddles. Riddles improve children's intelligence.

Keywords: riddle, folklore, metaphorical riddles, figurative riddles, poetic riddles, game riddles.

Kirish. Hayotni o'ziga xos badiiy idrok etish shakli bo'lgan topishmoq folklarning ommaviy janrlaridan biridir. Inson va uni o'rab olgan olam topishmoqlarda ko'chimlar, o'xshatishlar, taqqoslashlar, qiyoslar, solishtirishlar, savollar vositasida o'ziga xos poetik shaklda aks etadi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo'lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali reallashadi. Janrning poetik tabiatiga xos bo'lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga taalluqlidir. Demak, topishmoq – xalqaro janr. Shu bilan birga, har bir xalqning topishmog'i o'sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida o'ziga xos, original, jozibali va benazirdir. Shakli, vazifasi, ish-harakati va holati jihatidan bir-biriga o'xshash ikki predmet, narsa va hodisadan jumboqlanib, ikkinchisiga xos o'xshash belgilar topshiriq, topishmoq deb yuritiladi.

Inson yaralibdiki, o'zini qurshab turgan olam, tashqi muhit, voqeilikni bilishga, idrok etishga harakat qilib keladi. Bilish voqeilikni inson ongida in'ikos etishi va shu asosda obyektlarning xossalari, belgi va mohiyatini ifoda etadigan tushunchalar, g'oyalarni ishlab chiqarish jarayonidir. Bilish inson faoliyati ko'rinishlaridan biri bo'lib, bu faoliyat natijasi asosida esa bilimlar hosil qilinadi [1;57].

Topishmoq folklarning qadimiy janrlaridan biridir. Uning paydo bo'lishi, qadimiy vazifasi va dastlabki shakli haqida olimlar turli - tuman qarashlarni ilgari surishgan. Mashhur ingliz olimi E.B. Teylarning fikricha, topishmoq madaniyat tarixida maqol bilan bir vaqtga yuzaga kelgan bo'lib, sivilizatsiyaning quyi va o'rta bosqichlarida yanada taraqqiy etgan. Olimning fikricha, topishmoq an'anaviy savol-javob shaklidagi, odatda, quruq hazilga olib boruvchi hozirgi so'z o'yini emas, balki u jiddiy javob berishni talab qiladigan qadimiy shaklda tuzilgan topshiriqdir. Sfinks topishmog'i buning tipik namunasi bo'lishi mumkin [5;78]. Qadimgi grek mifida Sfinks boshi ayol, tanasi sher bo'lgan qanotli maxluq sifatida tasavvur qilingan. U Fiv shahri yaqinida joylashib olib: "Kim ertalab to'rt, kunduzi ikki, kechqurun uch oyoqda yuradi?"- deya topishmoq aytadi va javob topa olmaganlarni o'ldiradi. Nihoyat, Edip: "Inson bolaligida emaklaydi, ulg'ayganda tik yuradi va qariganda hassaga suyanib qoladi",- deb bu jumboqni yechadi va Fiv shahriga shoh bo'ladi [4;100].

G'arbning ulkan olimi Aristotel topishmoqlarning metaforalardan tashkil topganligini alohida ta'kidlaydi: "Amalda topishmoqning mohiyati real mavjud narsa to'g'risida so'zlash, shu bilan birga, butunlay mumkin bo'lmagan narsalarni birlashtirishdir. Bunda so'zlar vositasida erishib bo'lmasa, metaforalar orqali erishish mumkin [2;45].

Tabiatning sirli hodisalari inson hayotini taxminiy farazlar, folbinlik, astrologiya kabi og'zaki ijodning g'ayri tabiiy shakllarini ham maydonga keltirgan. Topishmoqlar bo'lsa xalq og'zaki ijodida eshituvchilardan ongli ravishda yashirilgan, berkitilgan narsa, hodisalarning asosiy mazmunini topish, yechishning o'ziga xos poetik formasidir. Shuning uchun topishmoqni eshituvchilar uni tabiat siri deb emas, yashiringan muayyan, aniq bir narsa deb hisoblashadi. Ko'p asrlik xalq donishmandligining durdonalari hisoblangan topishmoq inson idroki kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o'stiruvchi aqlning quvnoq o'yini ma'naviy dam olish vositasigina bo'lib qolmay, ajdodlarimizning ruhiy olami, tarixiy o'tmishini bilishda kalit vazifasini ham o'taydi.

Asosiy qism. Xalq og'zaki ijodi janri topishmoq ko'plab olimlar tomonidan o'rganilib, to'plangan. Vinkin de Vorde, T.A.Salovyeva ingliz topishmoqlarini, Oxunjon Safarov, To'ra Mirzayev, Darmon O'rayevalar o'zbek topishmoqlarini tadqiq etishgan. E.B.Taylor, Frederik Tupper eski va zamonaviy ingliz topishmoqlarini tahlilga tortishgan.

O'zbek xalq topishmoqlarining asosiy qismini **metaforik** topishmoqlar tashkil etadi.

Ma'lumki, badiiy tasvir vositalari qatorida istiora san'ati ham muhim o'rin egallaydi. Topishmoqlarda ana shu san'at yetakchilik qiladi. Chunki biron narsa ikkinchi bir narsaga istiora san'ati vositasida o'xshatiladi va eng muhim xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

O'zbek xalq topishmoqlarining yana bir turi **so'roq** topishmoqlar hisoblanadi. Bunday topishmoqlarda predmetlarning o'xshash belgilari bir-birlari bilan solishtirilmaydi, balki topuvchi oldiga ma'lum so'roqlar, muayyan vazifalar qo'yiladi. Masalan, "Dunyoda to'rt narsa yo'q" topishmog'ining javobi shunday:

Osmonning ustuni yo'q,

Hovuzning qopqog'i yo'q.

Ko'rpaning yengi yo'q,

Oshpichoqning qini yo‘q [5;286].

Topishmoqlar tuzilishi jihatdan **nasriy yoki she‘riy** shaklga ega. Nasriy topishmoqlar she‘riy tuzilishdagi topishmoqlarga nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. She‘riy topishmoqlarda she‘r shakliga xos turoq, vazn, qofiya, radif kabi barcha jihatlariga to‘la amal qilinadi. Masalan:

To‘rtidir uning oyog‘i,

Temir mixli tuyog‘i,

Manzilga yetishtirar,

Toshdan qattiq tuyog‘i (Ot). [5;264]

Topishmoqlar topilishi kerak bo‘lgan narasalarining paydo bo‘lgan davriga ko‘ra ikki xil bo‘ladi.

1.Qadimgi – an‘anaviy topishmoqlar.

2 Yangi topishmoqlar.

Agar an‘anaviy topishmoqlar mo‘ri, tandir, egar, o‘choq, qozon kabi narsalar haqida bo‘lsa, yangi topishmoqlarning mavzulari radio, televizor, kitob, atlas kartasi, samolyot, parovoz kabilar bilan bog‘lanadi. Ba‘zan an‘anaviy ertaklar matnlarida ham topishmoqli lavhalar uchraydi. Yerdan eng og‘ir narsa nima?, Uchta jumboqni yeching..... singari topishmoqlar ertak qahramonlari yechishi lozim jumboqlar sifatida keltiriladi.

Ingliz adabiyotida topishmoqlar eski ingliz she‘riyatidan kirib kelgan. Uning tarixiy ildizi Plato hamda Aristotel ijodiga borib taqaladi. Qadimgi Gretsiyada topishmoqlar aqlni charxlaydigan, zehnni o‘tkiraydigan hamda donishmandlikni shakllantiradigan asosiy qurollardan biri bo‘lgan. Grek mifologiyasidagi eng mashhur topishmoq Diniksning Zibis fuqarolaridan so‘ragan topishmog‘idir: “What has one voice becomes four footed, two footed and three footed?”. Jasur Odipus topishmoqning javobini quyidaqicha ifodalab beradi:

“Man, who crawls on all four legs as a baby, then walks on two legs as an adult, and finally needs a cane in old age”[3;34].

Keyinchalik shoirlar topishmoqlar orqali o‘zlarini namoyon qila boshlashganlar. Tarkibida topishmoqlar bo‘lgan she‘rlar kishilar diqqatini jalb qilgan va o‘sha she‘rlar orqali shoir ijodiga qiziqish uyg‘ongan. “Exeter Book” deb nomlangan kitobda 100 ga yaqin topishmoq berilgan. Topishmoqlar taxminan 700-yilning boshlarida ingliz tilining dastlabki shakli bo‘lmish Qadimgi ingliz tilida yozilgan. Bu topishmoqlar bo‘ronlar, kemalar, kitoblar va lochinlar haqida bo‘lgan.

Ingliz topishmoqlarining **she‘riy** va **savol** shaklidagi turlari keng tarqalgandir. Shuningdek, ular tegishli mavzularga qarab ham guruhlariga ajratilgan. Topishmoqni bir qator klassifikatsiyalar asosida guruhlariga ajratish mumkin. Ular tuzilishiga ko‘ra, asosan, ikki guruhga ajratiladi. Bular **enigma** hamda **konundrum** turlaridir.

Enigma bu shunday muammoli jumboqki, uning yechimi metaforik yo‘nalishda ifodalanadi. Uni topuvchi kishi juda chuqur mulohaza yuritishiga to‘g‘ri keladi. Masalan:

Alive without breath,

As cold as death,

Never thirsty, ever drinking,

All in mail, never clinking [10]

Baliq haqidagi bu topishmoqda o‘xshatishdan unumli foydalanilgan. Topishmoqning ikkinchi turi “konundrum” (conundrum) deb ataladi. Konundrum – soda tuzilish va mantiqiylikka ega topishmoq turidir. Bunday topishmoqlar tarkibidan javobni topish mumkin yoki ular osongina javobga ishora qiladi. Bunga quyidagi misol namuna bo‘la oladi.

In winter and in summer

They stand in both one colour (fir tree) [9]

An‘anaviy ingliz topishmoqlari bilan **zamonaviy** ingliz topishmoqlari keskin farq qiladi. An‘anaviy ingliz topishmoqlari qisqa, boshqotirmali va she‘riy shaklda bo‘lgan. Ularda tasvirlanayotgan predmetlar sirli tarzda, ba‘zida esa o‘yinlar shaklida ifodalangan. Bunday topishmoqlarning namunalari “Exeter Book” kitobida berilgan. Topishmoqlarda tabiat, insonlar, urush maydonlari, oshxona jihozlari, hayvonot olami kabi mavzular yoritilgan. Masalan: “How many men are clever enough to identify who sends me on my journey? I go, brave and roaring across the earth, burning buildings and houses in my wake. Smoke rises from the fires as I leave in a trail of disruption and death. I have the power to shake tall trees until their leaves fall down, covered in water, and scatter exiles far from their lands. I carry the bodies and souls of human beings on my back. Where do I retreat to, and what is my name?”[8]

Bu topishmoq momaqaldiroq haqida bo'lib, unda momaqaldiroqning kim tomonidan yuborilgani insoniyatga ma'lum ekanligi, ushbu hodisaning naqadar kuchli ekanligi, uning butun dunyoni qamrab olishi, olovidan tutun ko'tarilishi, hattoki, kuchidan daraxt barglarining silkinishi va to'kilishi bayon etilgan.

Hozirgi zamonaviy ingliz tilida yaratilgan topishmoqlarning turlari va tematik mazmuni nihoyatda rang-barang. Qo'llanish doirasiga ko'ra ham ular turfa klassifikatsiyalarga ega. Masalan, shunday topishmoqlar mavjudki, ular karadlar (tartib sonlar ishtirokidagi topishmoqlar) da qo'llaniladi. Ular o'n sakkizinchi asrda Fransiya yuzaga kelgan. Ingliz tilida karadlarning ilk namunalari 1776-yilda Ladi Boskoven (Lady Boscawen) tomonidan yozilgan. **Karadlar** Jeyn Ostenning "Emma" asarida o'ziga xos vazifa bajargan. Ijro etilgan karadlarning namunalari Uilliam Tekereyning "Vanity Fair" hamda Sharlotta Brontening "Jane Eyre" asarlarida berilgan [8].

Zamonaviy ingliz topishmoqlarining aksariyat qismi yumoristik ruhda bo'lib, **pun** (so'z o'yini) shaklida tuzilgan. Ular bolalarning chaqqonligini, topqirligini oshirish uchun qo'llaniladi.

"What's black and white and red (read) all over?" "A newspaper".

"What's brown and sticky?" "A stick".

"Why is six afraid of seven?" "Because seven ate (eight) nine" [10] kabi topishmoqlar quvnoqlik, yumoristik ruhiyatda berilgan. Shuningdek, ularda so'z o'yinidan unumli foydalanilganining guvohi bo'lamiz. Bu topuvchidan chuqur e'tiborni talab qiladi. Masalan: birinchi topishmoqdagi *red* hamda *read* so'zlariga diqqat qilsak, buning yaqqol ifodasini ko'ramiz.

Umuman olganda, ingliz topishmoqlari genezisi hamda mazmun va shakl ifodasining rang-barangligi namoyon bo'ldi. Shuningdek, topishmoqlarning enigma, konundrum, karad (tartib sonlar ishtirokidagi), she'riy, nasriy turlari mavjudligi aniqlandi.

Xulosa. O'zbek va ingliz tillarida topishmoqlar shakli va mazmuniga ko'ra farqlanadi. Har ikki tilda ham jarayon sirli, ba'zan esa o'ynoqi tarzda tasvirlangan. O'zbek topishmoqlarining metaforik, bir va ko'p komponentli, qadimgi va zamonaviy, she'riy, nasriy kabi turlari keng tarqalgan bo'lsa, ingliz topishmoqlarining enigma, konundrum, karad, pun (so'z o'yini) kabi turlari mavjud. Shuningdek, har bir til uchun o'ziga xos madaniyatga, tarixga ega so'zlar mavjud. Umuman olganda, topishmoqlar o'zbek va ingliz folklor janrida shakl va mazmun jihatidan tafovutlanishiga qaramay, alohida ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar kattalar va bolalar ongini o'stirishga, intellektual qobiliyatini oshirishga keng imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ashuraliyev Elyor, *Xalq topishmoqlarining kognitiv strukturasi. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.* – 74 b.
2. Aristotel. *Poetika.* Toshkent, 1980, 124 b
3. *Forum, English teaching professional, issues 49, March, 2007, 50p*
4. Husainova Z. *O'zbek xalq topishmoqlarining asosiy xususiyatlari va zamini: Filol. fanlari nomzodi.* . diss. – Toshkent: 1967, 72
5. Safarov O. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent. "Musiqqa nashriyoti"-2010, 370b
6. Тайлор Е.Б. *Первобтная культура.* – Москва, 1989, 1077см
7. en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle72
8. http://dSPACE.library.cornell.edu/bitstream/1813/Ontogenesis_of_Metaphor
9. <http://riddlegame.co.cc> Riddle Game
10. <http://funnyriddles.co.cc> Funny Riddles